



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Qudratov Namoz Tojimurodovich<sup>1</sup>

<sup>1</sup> O'zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti magistranti

## BUXORO AMIRLIGIDA SURXON VOHASI BEKLICKLARI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Buxoro amirligi tarkibida Surxon vohasi bekliklari tarixi, ijtimoiy iqtisodiy hayoti hamda amirlikdagi tutgan o'rni va Buxoro amirligi tarkibidagi boshqa bekliklar bilan aloqalari haqida. Sherabod, Boysun, Denov, Yurchi, Termiz bekliklari hamda shu bekliklar tarkibiga kirgan hududlar va Surxondaryo hududiga kiruvchi Dashnobod, Saraosyo va Sarijo'y amlokliklari Xisor bekligi tarkibiga kirganligiga haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Buxoro amirligi bekliklari, Surxon vohasi bekliklari, Denov, Boysun, Sherabod, Termiz, Yurchi bekliklari.

O'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutuvchi Buxoro amirligi tarixi bugungi kunga qadar bir qancha tarixchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Shu bilan birga mazkur tadqiqotlarda amirlikning ma'muriy-hududiy tuzilishi haqida ma'lum bir fikr-mulohazalar bayon qilingan. Buxoro amirligi 27 ta beklikka bo`lingan edi. Beklar shaxsan amir tomonidan tayinlanar va lavozimidan bo`shtilar edi. Beklar huzurida ularning qarindoshlari yoki yaqin kishilaridan tayinlangan ulkan amaldorlar guruhi bo`lgan. Barcha sohalardagi amaldorlar beklar va amirljkning oliy amaldorlari safi ularning o`g`illaridan, ko`pincha aslzoda beklar va xonlarning xonzoda deb nomlanuvchi tabaqasidan to`ldirilar edi.

XIX asr oxirida Buxoro amirligi aholisi 2 million kishi atrofida bo`lgan. Uning tarkibiga Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo, Surxondaryo vohasi va hozirgi Tojikiston hududining ayrim viloyatlari, hozirgi Turkmanistonning Murg`obgacha bo`lgan bir qismi kirar edi. Shahar va qishloqdagi aholining ko`pchilik qismida o'zbeklar, tog` va tog`oldi joylarida tojiklar yashar, Marvning janubiy hududlarida turkmanlar, shimoliy va sharqiy yerlarda

qozoq va qirg`izlar yashar edi. Shu jumladan hozirgi Surxondaryo hududida ham bir nechta bekliklar mavzud bo`lgan. XVIII asr oxiridan XIX asr o`rtalariga qadar Surxon vohasida Sherobod, Boysun, Denov mavjud bo`lgan. Bu davrda Sherobod bekligida amlokliklar quydagicha taqsimlangan: Tallashqon, Saidobod, Salovat, Jarqo`rg`on, Sherobod SHahri atrofidagi aholi yashaydigan maskanlari va Tallimaron hududlari kirgan. Bosun bekligi tarkibiga: Boysun, Yaumchi, Rabod, Darband, Sayrob, Xatak, Zarabog, Pashxurd, Buzravot, Kakaydi amlokliklaridan iborat bo`lgan.

Denov bekligi: Sina, Pustindara, Xadrasha, Do`rmon, Gardiq`o`rg`on amlokliklardan iborat. Beklar ma`muriy tuzilishni quyidagicha boshqargan. Bek, beklik yoki viloyatlar ijrochisi, Bekni dasturxonchi-iqtisodchisi, 2 ta zakotchi, soliq xizmatchilari, biri bek saroyida rezident, ikkinchisi esa aylanib yuruvchi. Navkar bajaruvchi va mirshab xizmatchisi jumladan tunda navbatchilik qiluvchi. Dorug`a-hosil yig`ish va soliq to`plash choralarini bajaruvchi. Suv bilan bog`liq ishlar esa mirobga taalluqli xodim. Amlakdorlar-mirob yoki oqsoqol tomonidan boshqarilgan<sup>1</sup>.

Yurchi bekligi amlokliklari: Sangardak, Pashor, Chambuloq va Yurchi shahrini o`z ichiga olgan. Surxondaryo hududiga kiruvchi Dashnobod, Saraosyo va Sarijo`y amlokliklari Xisor bekligi tarkibiga kirgandir. Ba`zi rus manbalarida keltirilishicha Surxon vohasining bir qismi Xisor vohasi tarkibiga kirganligi hamda u umumiy nom bilan Xisor vohasi deb yuritilganligi aytildi. N.Mayevning ma`lumotilariga ko`ra Xisor vohasida 7 ta beklikka bo`lingan deb aytib o`tadi ular quydagilar:

1. Sherabod bekligi
2. Boysun bekligi
3. Denov bekligi
4. Yurchi bekligi
5. Qo`rg`ontepa bekligi
6. Xisor bekligi
7. Qabodiyon bekligi

Bu bekliklardan tashqari Darband, Sarijo`y, Fayzobod amlokliklari ham mavzud hududlarga amaldorlarni shaxsan amrni o`zi tayinlagan hamda viloyatlarning qozi va raislarini ham o`zi tayinlagan deb ma`lumot keltirib o`tadi. N.Mayev o`zining “Buxoro xonligi ocherklari” kitobida bu haqida to`xtalib o`tgan. Surxon vohasi amirlikda o`z nufuziga ega va o`rniga ega bo`lgan hudud hisoblangan, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ham muhim ro`l o`ynagan. Mirzo Salimbekning “Tarixi Salimiyy” asari XIX asr oxiri XX asr boshlarida Surxon vohasida kechgan tarixiy voqiyalarini yoritishda muhim manba bo`lib xizmat qiladi, asarda muallif o`zi qatnashgan voqealarni bayon etgan. Unda Sherabod bekligi va qo`shni hududlarning siyosiy, iqtisodiy xayotiga doir ma`lumotlar berilgan.

Tadqiqotchi E.Musurmonovning fikriga ko`ra, Boysun bekligidagi Rabod, Zarabog`, Kakaydi, Xatak, Bo`zrabod, Sayrob amlokliklari xususida bu davr adabiyotlarida ma`lumotlar uchramaydi, shu bois, ular haqida biror fikr aytish qiyin. Aslida XIX asr oxiri-XX asr boshlarida bu amlokliklar saqlanib qolgan bo`lishi kerak, nima uchun deganda Boysun bekligi hududining kattaligi jihatidan vohada yetakchi o`rinda turgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Sherobod bekligida bir necha amlokliklar mavjud bo`lgan:

<sup>1</sup> Турсунов С. Турдиев Т. Денов. – Б. 171.

Talashqon, Saidobod, Tallimaron, Gilambob, Jarqo‘rg‘on, Solihobod, hamda Sherobod shahri bo‘lib, u alohida boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan

Sarijo‘ybekligi ma’lum muddat faoliyat ko‘rsatib, keyin- chalik beklik maqomini saqlab qololmagan. Manbalarga tayan- gan holda aniqroq aytadigan bo‘lsak, u 1887 yilga qadar beklik maqomiga ega bo‘lib, Sarijo‘y, Sariosiyo va Denov bekligining O‘rtaqo‘ri, Pashor, Chambulok va Yurchi amlokliklari uning tarkibida bo‘lgan. 1887 yildan so‘ng beklik tugatilib, Sarijo‘y va Sariosiyo amlokliklari Hisor bekligi tarkibiga, qolganlari esa yana Denov bekligi tasarrufiga o‘tkazilgan. Vohaga ruslar kirib kelganidan so‘ng Sherobod bekligi tarkibida yangi boshkaruv tizimi joriy kilingan. Termiz ikki qismidan iborat bo‘lib, uning xarbiy garnizon joylashgan sharqiy qismi qal‘a bilan o‘rab olingan. Shaharning bu qismida hokimiyat garnizon boshlig‘ining qo‘lida bo‘lib, shu hudud aholisi ham unga bo‘ysunardi. Termizning janubiy qismi Pattakesar qishlog‘i deb atalgan, undagi mahalliy aholi Buxoro amirining qonunlariga amal kilib, amir tomonidan tayinlangan beklarga bo‘ysunar, bu yerda yashagan rus fuqarolari (evropalik axoli) esa Rossiya imperiyasi, ya’ni shahar kengashi tomonidan idora kilinardi. Shunday qilib, birgina Termizning o‘zida uch xil boshkaruv tizimi mavjud bo‘lgan. Bunday murakkab boshkaruv tizimi mahalliy axoliga ham katta kiyinchiliklar tug‘dirgan. Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyon bosib organidan so‘ng o‘lkaga asta-sekinlik bilan rus fuqarolarini ko‘chirib keltirish siyosatini amalga oshira boshladi. Bu esa Buxoro amirligini ham chetlab o‘tmagan. Amirlik tarkibiga kirgan Termiz shahriga ham, boshqa shaharlarda bo‘lgani kabi, rus fuqarolari ko‘chirib kelina boshlandi.

Amirlik ijtimoiy hayoti va soliq siyosati jarayonlari Surxon vohasi ijtimoiy hayotida aks etgan Buxoro amirligida 50 ga yaqin soliq va to‘lovlar joriy etilgan bo‘lib, aholi bularni to‘lashga majbur edi. Bu soliq va to‘lovlar Sherobod, Denov, Boysun singari Sharqiy Buxoro bekliklaridan ham yigib olingan. Zakot yig‘uvchining hisobotiga ko‘ra, Buxoro amirligida bir yilda beklikkardan quyidagi mikdorda: Hisor bekligidan 270 ming, Ko‘lob bekligidan 70 ming, G‘uzordan 140 ming, Denovdan 75 ming Karkidan 38 ming Shahrabzdan 135 ming, Sheroboddan 100 ming, Sariosiyodan 165 ming tanga zakot yig‘ib olingan.

1904 yilga qadar Sharqiy Buxoroda zakotning miqdori tartibga solinmagan edi. 1904 yilga kelib zakotning mikdori quyidagicha qilib belgilandi: 5 ta yuk tashuvchi tuya xisobidan 1 ta qo‘y, 40 ta qo‘y yoki echkidan 1 ta qo‘y yoki echki. Qo‘y yoki echkining soni 100 tagacha bo‘lsa zakotning miqdori o‘zgarmagan. 101 tadan 201 tagacha bo‘lgan qo‘y yoki echkidan 2 bosh, undan ko‘p bo‘lsa har 100 tasidan 1 bosh qo‘y yoki echki olingan. Bundan tashqari, chorvaning ikkinchi yilgi ko‘payishi qam hisobga olingan va qo‘simecha zakot olingan. Zakotni savdogarlar va chorvadorlar to‘lashgan. Amirlikda tashqaridan olib kirilayotgan yoki chikarilayotgan, bir beklididan boshqa beklikka olib o‘tilayotgan mahsulot mikdoriga qarab u 2,5% mikdorida belgilangan. Sharqiy Buxoroda esa bozorga kirishda va chiqishda, Hisorda esa yerni va mulkni sotish va sotib olishda ham zakot solig‘i olingan.

Shu yillarda Sherobod viloyati fuqarolaridan ta’muli -qadim bo‘yicha bahorgi ekini qadimdan hosilning 1/5 kiem, kuzgi ekinlardan 1/4 qism xiroj soligi, boglardan 13 tanga, beda ekinidan 6 tanga, sabzavotdan esa 12 tanga tanob soligi olingan. Xiroj bilan bir vaqtida soliq yiguvchilar foydasiga bir kancha soliqlar olingan: kafsan, doruga, mushrifona, sagubordori, kotibona, muhrono, somon puli va boshqalar. Sherobod viloyatida XIX asrning 90 yillarida solik yiguvchilar 5 g‘alvir (1 pudga yakin g‘allani sig‘diruvchi idish) g‘alla

miqdorida kafsan solig‘ini to‘lashni talab qilganlar. Bu viloyatda an'anaga ko‘ra kafsan solig‘i to‘lash kerak emas edi<sup>2</sup>.

Mansabdor shaxslar ko‘pincha boylik orttirish maqsadida mansablaridan foydalanib, belgilangan mikdordan ikki barobar ko‘p soliq yigib olishgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Denov, Sherobod, Boysun, Hisor, Qabodiyon va boshqa bekliklarda bunday voqealarni ko‘plab uchratish mumkin edi. Masalan, Sherobod bekligida an'anaga ko‘ra kafsan soligi joriy etilmagan edi. Lekin shunga qaramay uni yig’ib olishgan.

## Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘Yxati

1. Турсунов С., Турдиев Т. Денов. –Тошкент: Фан, 2009.
2. Очилдиев Ф. Сурхон воҳаси бекликларидағи ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ўзгаришлар (XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошлари). - Т: ABU MATBUOT-KONSALT, 2008.
3. Турсунов С, Рашидов Қ. Бойсун тарихи. Akademnashr, 2011 йил.
4. Қаюмов А. Шеробод воҳаси аҳолисининг этник таркиби (XIX-XX аср бошлари) // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1996. № 3.
5. Турсунов С. Шерободликлар. - Т: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006.

---

<sup>2</sup> Очилдиев Ф. Сурхон воҳаси бекликларидағи ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ўзгаришлар (XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошлари). - Т: ABU MATBUOT-KONSALT, 2008. – Б.80.